
“Yurtning kuchi birlikda, qadri esa tinchlikdadir” shiori ostida sport musobaqasi o‘tkazildi.

Bugun tuman Markaziy o‘yingohida Favqulotda vaziyatlar vazirligining “Yurtning kuchi birlikda, qadri esa tinchlikdadir” shiori ostida otaliqqa olingan yoshlar o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazildi.

Tadbirda tuman hokimi o‘rinbosari E.Madaminov, Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari U.Bobojonov, Favqulotda vaziyatlar tuman bo‘limi boshlig‘i E.Madraximov, Yoshlari ishlari bo‘limi rahbari D.Yuldashev va Sport maktabi rahbari M.Uzaqovlar ishtirok etishdi.

Musobaqalarda 16 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan 120 nafar otaliqqa olingan yoshlar ishtirok etishib 5 ta sport yo‘nalishi bo‘yicha bellashdilar.

Yakunda g‘olib va sovrindor bo‘lgan jamoalarga tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg‘alari topshirildi.

2024-09-24 20:38:35